

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish.....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# JAHON SAVDO TASHKILOTI FAOLIYATI VA UNGA A'ZO BO'LISH XUSUSIDA



**Ruzibayev Jahongir Nodirovich**  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Soliq qo'mitasi xodimi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jahon savdo tashkilotining faoliyati, me'yoriy-huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi, JSTga kirish bosqichlari va talablari, JSTga a'zolik bo'yicha O'zbekistonning imkoniyatlari va qilinishi zarur bo'lgan ishlar boshqa mamlakatlar tajribasi asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon Savdo Tashkiloti, Jahon savdo tashkilotining me'yoriy-huquqiy asoslari, JSTga kirish bosqichlari va talablari.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается деятельность Всемирной торговой организатии, нормативно-правовая база, организационная структура, шаги и требования для вступления в ВТО, возможности членства Узбекистана в ВТО и другие мероприятия, которые необходимо провести выявленных на основе опыта других стран.

**Ключевые слова:** Всемирная Торговая Организация, Нормативно-правовая база Всемирной торговой организатии, Шаги и требования для вступления в ВТО.

**Abstract:** in this article, the activities of the World Trade Organization, regulatory and legal framework, organizational structure, stages and requirements of WTO entry, opportunities of Uzbekistan for WTO membership and the necessary work are revealed based on the experience of other countries.

**Key words:** World Trade Organization, regulatory frameworks of the World Trade Organization, WTO entry steps and requirements.

## KIRISH

Jahon sado tashkiloti (JST) – mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Jahon savdo tashkilotini (JST) yaratishga 1995-yil yanvar oyida asos solingan. Tashkilot 1947-yildan beri amalda bo'lgan Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) asosida tashkil etilgan. Biroq GATT xalqaro miqyosda faqat mahsulotlar savdosini masalalarini tartibga solgan bo'lsa, JST xizmatlar savdosini va xalqaro savdoda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni qo'shimcha ravishda tartibga solib kelmoqda.

2022-yil aprel holatiga ko'ra, 164 ta davlat Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib, bugungi kunda ular jahon savdosining 98 foizini tashkil qiladi. Uning asosiy vazifasi erkin va oshkora savdo aloqalarini tartibga solish va kengaytirish, odamlar hayotini yaxshilash orqali a'zo mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Tashkilotning me'yoriy-huquqiy bazasi har xil turdag'i o'ndan ortiq shartnomalardan iborat. Ushbu hujjatlar talablariga rioya qilish JSTning barcha a'zolari uchun majburiy hisoblanadi va unga a'zo bo'lismi xohlovchi davlatlar o'zlarining milliy qonunchiligini ularga muvofiqlashtirishlari shart.

Jahon savdo tashkilotida qarorlar — barcha a'zo davlatlar tomonidan ovoz berish yo'li bilan (konsensus yo'li) qabul qilinadi. JST nizomida ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish ham mumkinligi aytildi, ammo bunday amaliyat JSTda hali mavjud emas. Qoidalarga ko'ra, oliy darajadagi qarorlar kamida ikki yilda bir marta yig'iladigan Vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Vazirlar konferensiyasiga bo'y sunadigan Bosh kengash kundalik ishlarni bajarish uchun mas'ul hamda yiliga kamida bir marta Jahon savdo tashkilotining shtab-kvartirasi joylashgan Shveysariyaning Jeneva shahrida yig'iladi. Uchrashuvlarda ishtiroychi davlatlarning vakillari va elchilar ishtiroy etadi. Bosh kengash huzurida savdo siyosatini tahlii qilish va nizolarni hal etish bo'yicha maxsus organlar faoliyat yuritib, ularda 650 nafar xodim ishlaydi. Bundan tashqari, kengashda savdo va rivojlanish, savdo balansi bilan bog'liq cheklolvar, budget, moliya va ma'muriy masalalar bo'yicha qo'mitalar mavjud. Shuningdek, tovarlar savdosini, xizmatlar va intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha kengashlar faoliyat yuritadi.



## ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarining doimiy diqqat e'tiboridagi tadqiqot mavzularidan biridir.

Professor A.Vaxobov tomonidan JST faoliyati tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, "Jahon iqtisodiyotida o'tish davri iqtisodiyoti bir xo'jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o'z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlarning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi qator qiyinchiliklar va muammolar tug'dirishi bilan barobarida iqtisodiyotda raqobatdoshlik muhitini yaratish, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish omili bo'lib xizmat qilishi mumkin", deya ta'kidlaydi.

O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borayotgan N.Zufarova "Iqtisodièti o'tish davrida bo'lgan barcha mamlakatlarda (nafaqat sobiq sotsialistik mamlakatlar, balki XX asrning 60-70-yillarida import o'mnini to'ldiradigan sanoatlashtirish strategiyasiga amal qilgan rivojlanàetgan mamlakatlarda ham) liberallashtirish sari dastlabki qadamlar bir tomonlama qarorlar qabul qilish bilan u èki bu tarzda bog'liq bo'ldi. Islohotlarni bir tomonlama o'tkazish savdo sièsati sohasida mamlakat to'liq suverenitetini nazarda tutadi, bu esa uning nuqtai nazaridan ko'ngildagi maqsadlarga erishishning optimal sanalgan usullarini tanlashda hukumatning «qo'lini yechib yuboradi» (hukumatga keng yo'l ochib beradi)", deb hisoblaydi

Yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yo'lidagi ustuvor yo'naliishlardan biridir. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19-sentabr kuni Nuu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi dagi nutqida aytib o'tdi.

Uning ta'kidlashicha, global tahdidlarga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyoti "izchil islohotlar" tufayli «barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda».

«So'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ortiq ko'paydi. Bizning bosh maqsadimiz — 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir», — dedi prezident.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon savdo tashkiloti va unga a'zo bo'lishga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat JST amaliyotida ishtirok etishi uchun mazkur tashkilotga a'zo bo'lishi kerak. JSTga a'zo bo'lish uchun esa, xalqaro savdo sohasidagi qonunchilik bazasini JST savdo standartlariga, shuningdek, savdoni tashkil etish, bojxona tartib-qoidalari va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish sohasida qonunchilik bazasini muvofiqlashtirish bo'yicha ma'lum tartibdan o'tish zarur.

Hozirgi vaqtda JSTga a'zo davlatlar jahon savdosini tashkil etish tizimi ular tomonidan qabul qilingan besh tamoyilga mos kelishi kerak, deb hisoblaydilar (1-jadval).

**1-jadval:** Jahon savdosini tashkil etish tamoyillari

No	Tamoyillar	Mazmuni
1.	Savdoda kamsituvchi choralarning qabul qilinishi mumkin emasligi	Har qanday davlat boshqa davlatning tovar va xizmatlar eksporti va importiga cheklovlar qo'yish orqali uning tashqi savdo faoliyatini murakkablashtira olmaydi. Har bir mamlakatning ichki bozorida milliy va xorijiy mahsulotlar va xizmatlarni sotish shartlarida hech qanday cheklovlar yoki farqlar bo'lishi mumkin emas.
2.	Savdo va boshqa proteksionistik shartlarni olib tashlash	Savdo to'siqlari — bu xorijiy tovarlarning boshqa davlatning ichki bozoriga kirish qobiliyatini kamaytiradigan omillar. Bunday to'siqlarga quyidagilar kiradi: import kvotalari, ya'ni, import qilinadigan tovarlar va bojxona to'lovlari bo'yicha miqdoriy cheklovlar. Mamlakatlar o'rtafiga savdoga ma'muriy to'siqlar va valyuta kurslari ham ta'sir qiladi.
3.	Savdoni tashkil etishning aniqligi va barqarorligi	Savdo shartlari, tarifsiz va tarif cheklovleri o'zboshimchalik bilan yoki to'satdan o'zgartirilmasligi kerak.
4.	Xalqaro savdoni tashkil etishda raqobatbardoshlikni rivojlantirish	Turli mamlakatlar firmalari o'rtafiga teng raqobat uchun «adolatsiz» amaliyotlarni to'xtatish kerak. Mamlakatlar o'rtafiga savdo raqobati adolatli bo'lishi kerak, turli mamlakatlar korxonalarini o'rtafiga teng raqobatni tashkil qilish uchun davlat eksport subsidiyalari, narx dempingidan foydalanish kabi «adolatsiz» harakatlarni to'xtatish kerak.
5.	Rivojlanmagan mamlakatlarning xalqaro savdosini uchun imtiyozlarning mavjudligi	Bu tamoyil rivojlangan mamlakatlar bilan dastlabki bosqichlarda teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan chekka hududlarning rivojlanmagan mamlakatlarni jahon savdosiga jalb qilish uchun zarurdir. Lekin, asosan, JST erkin savdo (erkin savdo) g'oyalarini amalga oshiradi va proteksionizmni yo'q qilish uchun kurashadi.



JSTga a'zo bo'lishni xohlovchi mamlakatlar uchun GATT/JST mavjud bo'lgan 50 yil davomida ishlab chiqilgan va shakllangan qo'shilish tartibi mavjud. U ko'p qirrali bo'lib, bir qancha bosqichlardan iborat. Ushbu kirish jarayoni taxminan 5-7 yil davom etadi (2-jadval).

## 2-jadval: JSTga kirish bosqichlari va tartibi

No	Bosqichlar	Mazmuni
1.	Savdo qonunchiligi va boshqa huquqiy hujjatlarni o'rganish bosqichi	JSTga a'zo davlatlarning maxsus ishchi guruhlari JSTga a'zo bo'lgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi va savdo-siyosiy rejimini ko'p tomonlama davlat darajasida ularning JST qoidalari va qoidalariga muvofiqligini batafsil tahlil qiladi.
2.	Maslahat bosqichi	Ariza beruvchining ushbu tashkilotga a'zo bo'lish shartlarini kelishish uchun muzokaralar va maslahatlashuvlar o'tkaziladi.
3.	Erishilgan imtiyozlar va majburiyatlarni rasmiylashtirish bosqichi	Ariza beruvchi davlat o'z bozorlariga kirishni yaxshilash uchun JSTning barcha a'zolariga taqdim etishga tayyor bo'lgan «tijoriy ahamiyatga ega» imtiyozlar bo'yicha muzokaralar olib boriladi, shuningdek qabul qilish muddati va formati bo'yicha ushbu Bitimlar bo'yicha JSTga a'zolikdan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.
4.	JST a'zolarining huquqlarini ta'minlash bosqichi	JSTga a'zo bo'lgan davlat JSTga a'zo bo'lgan barcha huquqlarni oladi. Bu amalda barcha tashqi bozorlarda uning kamsitilishiga to'liq barham berishni anglatadi
5.	Hujjatlarni tayyorlash bosqichi	Tartibga solinadigan tartibga muvofiq, ichki bozorlarga chiqishni to'liq liberallashtirish bo'yicha muzokaralarning barcha natijalari, shuningdek, yangi mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lish shartlari quyidagi rasmiy hujjatlarda qonuniy ravishda rasmiylashtiriladi: yangi ishtirokchi o'z zimmasiga olgan ishchi guruh hisobotidan olingan huquq va majburiyatlar to'plami; tariflar va imtiyozlar bo'yicha majburiyatlar, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha majburiyatlar; xizmatlar bo'yicha aniq majburiyatlar; eng qulay davlat rejimi (MFN) bo'yicha ro'yxatdagi istisnolar ro'yxati; Mamlakatning JSTga a'zoligi to'g'risidagi protokol
6.	Milliy qonunchilik va tashqi savdoni tartibga solish amaliyotini JSTning Urugvay raundi kelishuviga muvofiqlashtirish bosqichi	Bu yangi mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lish shartlarini tartibga solishning asosiy bosqichidir. Yangi mamlakatlarning milliy qonunchiligi va tashqi savdo faoliyatini tartibga solish amaliyoti tashqi savdo mamlakatlari o'rtaсидagi muzokaralarning Urugvay raundi kelishuvlarining asosiy qoidalariga muvofiqlashtirilishi kerak. Ushbu bosqichda milliy qonunchilik qo'shilayotgan mamlakatning tartibga soluvchi organi tomonidan ratifikatsiya qilinadi, hujjatlarning to'liq paketi ishchi guruhnasi ishlab chiqish doirasida kelishiladi va JST Bosh kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so'ng taqdim etilgan majburiyatlar JST hujjatlarining me'yoriy to'plamiga, shuningdek ishtirokchi davlatning milliy qonunchiligiga kiradi va mamlakat JST a'zosi maqomini oladi.

JSTga a'zo bo'lish O'zbekistonga tashqi savdoda tayyor mahsulot ulushini oshirish uchun yanada keng imkoniyatlar ochadi.

O'zbekiston yaqin uch yil ichida tayyor mahsulot eksportini ikki baravar oshirish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yan. Bunga erishishning yagona yo'il Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishdir. Bu rivojlangan davlatlar bilan adolatli savdo tizimini yo'lga qo'yish va barqaror bozorlarni ochish imkonini beradi.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish uchun arizani 1994-yil dekabr oyida topshirgan edi. Biroq obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, bu jarayon to'xtadi. 2017-yilda Prezidentimiz ushbu tashkilotga a'zo bo'lish tartibini davom ettirish kerakligini ma'lum qilgan edi. O'tgan davr mobaynida maqsad sari dadil qadamlar tashlandi. JSTga a'zo 50 dan ortiq davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar olib borildi. Ushbu jarayon doirasida mart oyida maxsus ishchi guruhining oltinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Qo'shnilarimiz – Qozog'iston 2015-yildan, Qirg'iziston 1998-yildan va Tojikiston 2012-yildan – Jahon savdo tashkilotining to'liq a'zosi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, o'zgalarning amaliy tajribasini o'rganish za'ruriyatni kelib chiqadi. Xususan, Xitoydan misol keltirish mumkin. Xitoy besh yildan ortiq murakkab muzokaralar olib bordi va shundan keyingina 2001-yil 11-dekabrdagi kelishuvlar asosida JSTning 143-a'zosi bo'ldi. Shu bilan birga, hukumatga bir qator murakkab talablar qo'yildi. Tariflarni pasaytirish, AQSh kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlariga tariflarni 25 foizdan 7 foizga tushirish, amerikalik fermerlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan 14 foizga tushirish, bank, sug'urta, telekommunikatsiya kabi muhim sohalarda qator tarmoqlarni ochish shular jumlasidandir.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi bilan bog'liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma'muriy va institutsional tizimni shakllantirish bo'yicha majburiyatlarni bajarish mexanizmi edi.



## XULOSA

Jahon savdo tashkiloti O'zbekistonga ham xuddi shunday shartlarni qo'yadi, jumladan, siyosat va iqtisodiyotda ochiqlikni ta'minlash, eksport-import va boshqa iqtisodiy tizimlarda rejalashtirishdan voz kechish, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari importida davlat monopoliyasini bekor qilish va h.k. Bu shartlarga rioxaya qilish davr talabi va jahon iqtisodiyoti qoidalariga rioxaya qilish demakdir.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish imkoniyatlari qisqacha baho beradigan bo'lsak, ular so'nggi yillarda jiddiy islohotlarni boshdan kechirgan turizmni rivojlantirish, integratsiya imkoniyatlarini oshirish, tarifsiz cheklavlarni qisqartirish, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish, investitsiyalar hajmini pasaytirishda namoyon bo'limoqda. O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti vakillari bilan muzokaralari yana ikki-uch yil davom etishi mumkin. A'zolik masalasi osonlikcha hal bo'lmaydi, oldinda qiyin bosqichlar turibdi. Muzokaralar mavzulari va muammolarining doirasi shunchalik kengki, ulardan birini yo'qotish yangi muammoga olib kelishi mumkin. Masalan, tog'-kon sanoati, neft-gaz, energetika, temir yo'l va havo transporti kabi tarmoqlarda xususiyashtirish hali tugallanmaganini jiddiy muhokama qilish kerak.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. JSTga to'laqonli a'zo bo'lish — O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biri, 2023 yil 19 sentyabr Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan.
2. Vaxobov A. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining jahon savdo tashkilotiga kirish tajribasi: yo'qotishlar va afzalliliklar.: Xalqaro iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar, 2020.
3. Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики// Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. -М.: Международные отношения, 2004. С. 88.
4. Энрю Берг и Энн Кригер. Что будет означать вступление в члены ВТО для Китая и его торговых партнеров? // Финансы и развитие, №3, выпуск 39, 2002. С. 10.
5. [www.wto.org](http://www.wto.org)
6. <http://www.china.org.cn/russian/31516.htm>



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

